

SAID AHMADNING SO‘Z QO‘LLASH MAHORATI

Qobilova Madina Sobir qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta’lim fakulteti

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs 21-04-guruh talabasi

Annotatsiya: Taniqli adib O‘zbekiston Qahramoni va O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad Husanxo‘jayev ijodi, adabiy merosi haqida fikr bildiradigan bo‘lsak, asarlarida so‘zdan nechog‘lik ustalik bilan foydalanganligiga to‘xtalmasdan ilojimiz yo‘q. Chunki aynan o‘z o‘rnida qo‘llangan so‘zlargina asarning muvaffaqiyatiga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: kun yoyilib ketdi, g‘adablamang, notob, chog‘, sarjin, palyolangan, betob, g‘o‘lalangan.

Said Ahmad so‘zning qadriga yetadigan ijodkorlardan biri hisoblangan. Adib asarlarida qo‘llaydigan so‘zlarga juda ham sinchkovlik bilan e‘tibor qaratgan. Har bir ishlatilgan so‘z chuqur ma‘noga ega; so‘zlarning ma‘nodoshligi, ko‘p ma‘noliligi, shakldoshligi kabi jihatlaridan ham unumli foydalangan. Bayon qilmoqchi bo‘lgan fikrini qisqa va lo‘nda qilib ifodalashga harakat qilgan. So‘zning qadriga yetgan, behuda so‘zlarni qo‘llashdan uzoq turgan. Ifodalanayotgan fikrning ma‘noli va ta‘sirchanligiga e‘tibor bergan. O‘quvchining mantiqiy fikrlash darajasini o‘stirishga harakat qilgan. Eskirgan, iste‘moldan chiqib ketgan so‘zlardan ham ustalik bilan foydalanganki, bu holat asarlarining badiiy ahamiyatini sezilarli darajada oshirgan. Quyida mashhur yozuvchining “Ufq” trilogiyasi tarkibiga kiradigan “Qirq besh kun” romanida so‘zlardan qanday qilib mahorat bilan foydalanganligiga to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Asarning boshida Ikromjon handalak olib kelyotganda Rasul bobo bilan uchrashadi, otaxon esa unga shunday deydi:

• **Jonivorning hidini qara! Handalak pishihti-da.**

Aslida jonivor deb joni bor narsalarga, asosan, hayvonlarga nisbatan ishlatamiz. O‘zimizga yoqqan hayvonni “ha jonivor” deb erkalab ham qo‘yamiz. Ammo yozuvchi jonsiz narsaga - handalakka nisbatan bu so‘zni ishlatib, o‘quvchiga Rasul buva uchun handalakning nechog‘lik qadrli hamda uzoq kutilganligini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Ikromjon bergan handalakni o‘zi yemasdan, nabirasi uchun asrab qo‘yishida ham bir ma‘no bordek. Handalak Rasul buva uchun nabirasining diydori, yaqinlari bilan, sog‘ingan insonlari bilan ko‘rishish ramzi edi, -desak yanglishmagan bo‘lamiz.

Xuddi shu yerda asar qahramoni Ikromjon tomonidan qo‘llangan yana bir so‘zga diqqatingizni qaratmoqchiman. Chunki bu so‘z orqali yozuvchi inson uchun eng muhim xilqat omonlik ekanligini yana bir bor ko‘rsatib bergan.

• Ha, topdingiz, buva, handalak chiqibdi. Mana, **omonlikka** birini oling.

Inson omon bo‘lsagina, sog‘ – salomat yursagina boshqa narsalar haqida orzu qilishi, harakatlanishi mumkin. Ikromjon ham boboning keksaligini bilib “omonlik”ka yetishib yurishi, hayot yo‘li bundan ham uzoq bo‘lishi uchun handalakni bermoqchi bo‘ladi.

Yozuvchi so‘zlarning ma‘nodoshligidan ham unumli foydalangan. Ko‘p o‘rinlarda betob so‘zi o‘rnida “**notob**”, kichik so‘zi o‘rnida “**chog**”, o‘tin so‘zi o‘rnida “**Sarjin**”, g‘o‘lalangan so‘zi o‘rnida “**palyolangan**”, ona so‘zi o‘rnida “**tuqqanlaring**” kabi so‘zlarni qo‘llash bilan asarning badiiyatini oshirgan, shuningdek, o‘quvchilarning ham diqqat-e‘tiborini ushbu narsalarga, holatlarga qaratgan. Agar yuqoridagi so‘zlarni har doimgidek “**betob**”, “**kichik**”, “**o‘tin**”, “**g‘o‘lalangan**” so‘zlari bilan ifodalaganda, o‘quvchilarning ushbu so‘zlar orqali anglatmoqchi bo‘lgan fikrlarga diqqat – e‘tiborini jalb qila olmasligi mumkin edi. Chunki kitobxon ham noodatiy tarzda qo‘llanilgan so‘zlarga, noodatiy usulda yozilgan asarlarga ko‘proq qiziqadi. Shuning uchun ham adib ushbu so‘zlardan foydalangan. Yana bir o‘rinda esa “**g‘adablamang**” so‘zini

qo‘llab, o‘quvchini ushbu so‘z ustida izlanishga majbur qilgan. Bir qaraganda, bu so‘z imloviy jihatdan xato yozilganga o‘xshaydi: Jannat xola tilidan turmush o‘rtog‘iga – Bolamni so‘kmang. Bolaginamni g‘adablamang,- tarzidagi fikr bayon qilingan. **“G‘adablamang”** so‘zi **“urushmang”**, **“tanbeh bermang”** kabi ma’nolarni ifodalab keladi.

Said Ahmad Tursunboyning uxlab yotgan vaqtini bildirish uchun **“kun chiqdi”** iborasi o‘rnida **“kun yoyilib ketdi”** iborasini qo‘llagan. Bu orqali esa quyosh chiqqaniga ancha bo‘lganligini, odamlarning hammasi ish bilan mashg‘ul ekanligini ko‘rsatib ham bergan. Agar **“Kun chiqdi”** iborasini qo‘llaganida asar qahramoni Tursunboyga xos bo‘lgan beg‘amlilik, dangasalik, hech kim bilan ishi yo‘q – beparvoligi kabi sifatlarini o‘quvchiga yetkazib bera olmas edi. Tursunboyning erka, tanti va ishyoqmas ekanligi birgina ushbu iborada mujassamlashganligi adibning so‘z qo‘llashdagi mahoratini ko‘rsatib beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mashhur adibimiz Said Ahmadning ijodiga oid bo‘lgan qisqacha mulohazalar sanaladi. Said Ahmad asarlarini o‘qiyotganimizda har bir so‘zning ishlatilishiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, adib asarlarining mazmun – mohiyatini anglab olish qiyin bo‘lmaydi. Chunki adib har bir so‘zini o‘ylab, ma‘nosini anglagan holda o‘z asarlarida qo‘llagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Normatov U., Sayd Ahmad [Adabiy portret], T., 1971; G‘afurov I., Prozaning shoiri, T., 1984.
2. Karimov N.va boshqalar 20 asr o‘zbek adabiyoti tarixi.-T.: „O‘qituvchi“, 1999.
3. Ufq, T., 1976; Saylanma [3 j.li], 1982; Tanlangan asarlar [3 j.li], T., 2000; Qorako‘z majnun, T., 2001; Kiprikda qolgan tong, T., 2003.